

“Toshkent irrigatsiya va qishloq  
xo’jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti



## Termodinamika va Issiqlik uzatish asoslari fani

**Mavzu:**  
**Termodinamikaning birinchi  
qonuni**



texnika fanlari nomzodi , dotsenti  
Nuritov Ikrom Rajabovich



# **Termodinamikaning birinchi qonuni**

*Reja:*

- 1. Asosiy tushunchalar. Qaytar va qaytmas termodinamika jarayonlari.*
- 2. Gazning ichki energiyasi. Gazning tashqi ishi.*
- 3. Termodinamika birinchi qonunining mohiyati va uning matematik ifodasi.*
- 4. Gazlarning issiqlik sig'imi.*
- 5. Gaz entalpiyasi. Gaz entropiyasi.*

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Joseph M Powers. LECTURE NOTES ON THERMODYNAMICS. Department of Aerospace and Mechanical Engineering University of Notre Dame, Notre Dame, Indiana 46556-5637, USA, updated 01 July 2014.
3. R.A.Zohidov, M.M.Alimova, Sh.S.Mavjudova. Issiqlik texnikasi (darslik). – T.: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 200 b.
4. T.S.Xudoyberdiev, B.P.Shaymardanov, R.A.Abduraxmonov, A.N.Xudoyorov, B.R.Boltaboyev. Issiqlik texnikasi asoslari (darslik)–T.: “Cho’lpon” nashriyoti, 2008. – 216 b.
5. Ш. Ж. Имомов, И. Р. Нуритов, К.Э.Усмонов. Сборник задач по основам термодинамики и теплопередачи /Учебное пособие- Т.:ТИИИМСХ.2021.-116 с.

<https://uz.khanacademy.org/science/physics/thermodynamics/laws-of-thermodynamics/v/quasistatic-and-reversible-processes>

<https://m.youtube.com/watch?v=TRhEUIxJals>

<https://resh.edu.ru/subject/lesson/5897/main/150908/>

<https://m.youtube.com/watch?v=TRhEUIxJals>

## Ideal gaz deb qanday gazga aytiladi?

XIX asr o'rtalarida

M.V.Lomonosov tomonidan asos solingan gazlarning molekulyar kinetik nazariyasi

$$p = \frac{n \cdot m \cdot \omega^2}{3}$$

## Real gazlarda qanday gazga aytiladi?

*ideal gazning issiqlik holatining termik tenglamasini*

$$\frac{p\vartheta}{T} = R, \quad p\vartheta = RT$$

## Real gaz holatini golland fizigi Yan Diderik Van-der Vaals tomonidan

$$\left( p + \frac{a}{\vartheta^2} \right) (\vartheta - \epsilon) = RT$$

## Real gaz holatini rus olimlari M.P.Vukalovich va I.I.Novikovlar

$$\left( p + \frac{a}{\vartheta^2} \right) (\vartheta - \epsilon) = RT \left[ 1 - \frac{A_1 \cdot T}{\vartheta - \epsilon} - \frac{A_2 \cdot T}{(\vartheta - \epsilon)^2} \right]$$

## **1. Asosiy tushunchalar. Qaytar va qaytmas termodinamika jarayonlari.**

Agar moddiy jismlar o'zaro va tashqi muhit bilan mexanik hamda issiqlik ta'sirida bo'lsalar, u holda bunday moddiy jismlar tizimini **termodinamika tizimi** deb yuritildi.

Tizim tashqi muhitdan to'la ajratilgan bo'lsa – **yopiq**, tashqi muhitdan ajratilmagan bo'lsa – **ochiq termodinamik tizim** bo'ladi.

Agar termodinamik tizimning hamma nuqtalarida tashqi muhit bilan bir xil bosim va bir xil harorat, vaqtga bog'liq bo'lmanan holda saqlansa (**masalan, xonaga olib kirilgan biron ochiq idishdagi suyuqlik, bir necha soatdan keyin**), bunda termodinamik tizim **teng salmoqli holatda** deyiladi. Ya'ni tizimda vaqt davomida ichki va tashqi issiqlik almashinish bo'lmaydi.

Agar idishdagi gaz xonada turaversa, bir qancha vaqtdan so'ng ishchi jism (gaz) yangi **teng salmoqli holatiga** keladi. Shu yangi teng salmoqli holatiga kelishi uchun sarflanadigan vaqt **tizimning reaksiya vaqtি** deyiladi.

Gazning bir termodinamika holatdan ikkinchi termodinamika holatga o'tishi, ya'ni gaz holatini o'zgarishining ketma - ketligi ***termodinamik jarayon*** deyiladi.

Agar termodinamika jarayonida gaz ketma - ket teng salmoqli holatini egallab borsa, jarayon ***teng salmoqli*** deyiladi.


Vaqtning har bir paytida jarayon teng salmoqli holatidan biroz farq qilsa, bunday jarayonlar, ***kvazistatik jarayon***, ya'ni teng salmoqli holatiga yaqin deyiladi.

Bunday jarayonda gazning ayrim nuqtalarida bosim va harorat bir - biridan juda oz farq qiladi.

**Kvazistatik jarayonlarni amalda uchratish qiyin bo'lganligi uchun ularni *ideal jarayonlar* deyish mumkin**




Kvazistatik va qaytar jarayonlar \_ Kimyoviy muvozanat \_ Kimyo.mp4.mp4



1



$$P_0, V_0, T_0 = \text{const}$$


$V \uparrow$     $P \downarrow$     $T \downarrow$



2



$$P_1, V_1, T_1$$






$P, V, T = \text{const}$

Termodinamik muvozanat









Termodinamika I -  
Termodinamika I -  
Termodinamika I -

## *2.Gazning ichki energiyasi.Gazning tashqi ishi.*

**Termodinamika birinchi qonuni**  
energiyaning aylanish va  
saqlanish qonuni, energiya  
yo'q bo'lmaydi, yo'qdan bor  
bo'lmaydi.Faqat bir turdan  
bosh turga aylanadi.



## *Ideal gazlarda ichki energiya quyidagilardan tashkil topadi:*






- a) molekula ilgarilanma harakatining kinetik energiyasi;
- b) molekula aylanma harakatining kinetik energiyasi;
- v) atomlar aylanma harakatining kinetik energiyasi;
- g) molekula ichidagi atomlar tebranma harakatining kinetik energiyasi.

Real (mavjud) gazlarda esa, yuqoridaidan tashqari molekulalarning o'zaro ta'siri natijasida sodir bo'ladigan ***potensial energiya*** ham hisobga olinadi.

$$U = U_k + U_n$$

$\Delta U = Q + L$  gaz ustida tashqik kuchlaning bajargan ishi


$\Delta U = Q - L$  gazning bajaradigan ishi



# Termodinamika jarayonlarda gazning bajargan ishi

## 1. Izoxorik jarayon

$$V_1 = V_2 = \text{const}$$




$$Q = \Delta U$$

Keltirilgan issiqlik ichki energiya o'zgarishiga sarflanadi.

## 2. Izotermik jarayon

$$T_1 = T_2 = \text{const}$$




$$Q = L$$

Keltirilgan issiqlik faqat ishga sarflanadi.

## 3. Izobarik jarayon


$$P_1 = P_2 = \text{const}$$



$$Q = \Delta U + L$$


Keltirilgan issiqlik miqdori sistemaning ichki energiyasini o'zgartirishga va o'zgarmas bosimda ish bajarishga sarf etiladi.

## 4. Adiabatik jarayon



Issiqlik almashmaydigan qilib izolyatsiyalangan sistemada bo'ladigan jarayon adiabatik jarayon deyiladi. Ish ichki energiya kamayishi evaziga bajariladi.

### 3. Termodynamika birinchi qonunining mohiyati va uning matematik ifodasi.




$$Q = \Delta U + L$$

$$\Delta U = U_2 - U_1$$

$$Q = \Delta U + P\Delta V$$

$$\Delta V = V_2 - V_1$$

$$L = P \Delta V$$



$$Q = \Delta U + P \Delta V$$
$$dQ = dU + PdV$$
$$dU = dQ - PdV$$

$$L = \int_{V_1}^{V_2} PdV$$

## **4. Gazlarning issiqlik sig'imi.**

Bir birlik miqdordagi ( $1\text{kg}$ ,  $1\text{m}^3$  yoki  $1\text{ kmol}$ ) gazni  $1^\circ\text{S}$  ga isitish uchun sarflanadigan issiqlikning miqdoriga, gazning issiqlik sig'imi deb yuritiladi.

Shunga mos ravishda, gazning issiqlik sig'imi ham 3 xil bo'ladi, ya'ni

1. Gazning massa bo'yicha issiqlik sig'imi;
2. Gazning hajm bo'yicha issiqlik sig'imi;
3. Gazning kilomol bo'yicha issiqlik sig'imi.

Shuningdek, ularning o'lchov birliklari ham 3 xil bo'ladi, ya'ni

1.  $c$  - massa bo'yicha issiqlik sig'imi,  $\text{J}/(\text{kg K})$ ;
2.  $\bar{C}$  - hajm bo'yicha issiqlik sig'imi,  $\text{J}/(\text{m}^3 \text{K})$ ;
3.  $\mu c$  - kilomol issiqlik sig'imi,  $\text{J}/\text{kmol.K}$

## 5. Gaz entalpiyasi.

Faraz qilaylik, qo'zg'aluvchan porshenli silindrga **1kg** ishchi jism (gaz) to'ldirilgan. Silindr ichidagi gazning bosimi **P** muhit bosimidan yuqori.

U holda porshen ko'tarilib ketmasligi uchun (muvozanatlash uchun) biror yuk qo'yish kerak bo'ladi. Uning og'irligi


**G=p. F** bo'lishi kerak.

Bu yerda **F** - silindrning ko'ndalang kesim yuzasi.

Yukni muvozanat holatda ushlab turgan gazning potensial energiyasi quyidagicha bo'ladi

$$G g h = p F g h = p V g,$$

chunki bu yerda **g** - erkin tushish tezlanishi.



**Ushbu misolimizdagi gazning to'la energiyasi quyidagicha bo'ladi:**

$$h = u + p \vartheta$$

## Gaz entropiyasi

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, **P, V, T, U** va **h** gaz holatining parametrlari (ko'rsatkichlari) bo'lib hisoblanadi.

Lekin issiqlik miqdori **q** va ish **ℓ** gaz holati ko'rsatkichlari bo'la olmaydi.

Har qanday termodinamika jarayonida qatnashadigan issiqlik miqdorini bilish nuqtainazaridan termodinamikada yana bir gaz holatining ko'rsatkichi – **entropiya** kiritilgan.

Faraz qilaylik, boshlang'ich va oxirgi holatiga ega bo'lган ideal gaz qaytuvchan termodinamikaning jarayonini bajarmoqda. Jarayon davomida gazning harorati o'zgarib turadi.

Agar jarayonni cheksiz kichik va bir-biriga cheksiz yaqin bo'laklarga bo'lsakda, har bir bo'lakda **dq** issiqlik beriladi deb olsak, bunda biz cheksiz kichik jarayon oralig'ida gazning harorati deyarli o'zgarmaydi deyishimiz mumkin.

Cheksiz kichik jarayonda gazga berilgan issiqlikni gazning mutloq haroratiga nisbatini **keltirilgan issiklik** deb ataymiz va **Gaz entropiyasi**


**ds** bilan belgilaymiz, ya'ni:

$$\frac{dq}{T} = ds$$

## **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1.Qaytuvchan jarayon va qaytuvchan siki nima ? 2.Tizim ichki energiyasi ma'nosi nima? U mikrozarralarning qaysi turdag'i harakatlaridan iborat? Ichki energiya holat parametri ekanligini isbotlang. Ideal va real ishchi jism ichki energiyalari farqi nimada? 3.Ishni ifodasini ketirib chiqaring.  $pV$  – koordinatlarda jarayon egri chizig'i ostidagi maydon son jihatdan ishga tengligini tasvirlang. 4.Ish va issiqlik nima? Ular orasidagi umumiylilik va farqlanishlar nimalardan iborat ? 5.Termodinamikaning birinchi tenglamasini keltirib chiqaring. 6.Haqiqiy va o'rtacha issiqlik sig'imi nima ? Ular orasidagi bog'lanishni (grafik va analitik) ko'rsating. Issiqlik sig'imining har xil turlarini sanang, ularning o'lchov birliklarini ayting. 7.Gaz aralashmalari issiqlik sig'imi, komponentlari massaviy va hajmiy ulushlari orqali qanday ifodalanadi ? 8.Entalpiya nima,o'lchamlari qanday? Ichki energiya va entalpiya uchun hisoblash ifodalarini keltiring.Termodinamika birinchi qonuning entalpiya orqali ifodalishini keltiring.

**E`TIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT**



\* ilgasikanma karakterdagi kinetik enerqiyasi

$$\frac{mv^2}{2}$$

\* aylanma karakterdagi kinetik enerqiyasi



\* zarrahalarning özaro taisirlashuvini hisobiga hosil bolgan potensial enerqiyasi

$$E_p \xleftarrow{\quad} E_k \xrightarrow{\quad}$$

hisobiga hosil bolgan potensial enerqiyasi

$\Delta U = Q - A$  gazning (sistemaning) bajaradigan ishi

$\Delta U = Q + A$  gaz ustida (sistema ustida) tashqi kuchlarning bajargan ishi

## Termodinamikaning 1-qonunu

Energiya ö2-özidan paydo bolmaydi, yoki ö2-özidan yög bolib qolmaydi. Fagat bir turdan boshqa turga aylanadi.

